



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021  
maxsus son

**DJURAYEV Risbay**  
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-  
da № 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltiril-  
ganda «Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsa-  
tilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Sherzod* SHERMATOV  
*Uzoqboy* BEGIMQULOV  
*Alisher* UMAROV  
*Nargiza* RAXMANQULOVA  
*Nodira* EGAMBERDIYEVA  
*Xolboy* IBRAGIMOV  
*Shavkat* QURBONOV  
*Roxatoy* SAFAROVA  
*Islom* ZOKIROV  
*Dono* G'ANIYEVA  
*Lobar* QARAXANOVA

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **Z.A.Artikbayeva, Sh.R.Tashmatova**  
Ekologik-gigiyenik dunyoqarash rivojlantirishda uzluksuz ta'limning roli
- 7 **M.M.Djumayeva**  
Markaziy osiyo mutaffakirlarning tabiiy fanlarni rivojlantirish xizmatlari
- 12 **M.U.Beknazarova**  
O'qitishda kreativ yondashuv masallari
- 17 **M.X.Eshonkulova**  
Bolalarni ixtirochilikka yo'naltirish integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirish mezonlari
- 24 **X.T.Jumanov**  
Umumta'lim maktablarida iqtisodiy tarbiya mezonlari va uning uslubiy asoslari
- 23 **S.Sh.Karimova**  
O'quvchilarni ijodiy shaxs sifatida rivojlantirishda kreativ yondashuv masallari
- 38 **M.M.Əsonov**  
Об основах воспитания математического мышления в общеобразовательной школе на идеях конструктивной геометрии (на методических материалах Узбекистана)
- 42 **Л.К.Пурназаров**  
Болалар тарбиясида ўзбек мусиқанинг муаммолари
- 50 **А.А.Рахматуллаева, М.Б.Мадайева**  
Таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотлар тўғрисида
- 58 **F.Shazadaye**  
Milliy o'quv dasturi talablari asosida axborot texnologiyalarini oqitishda innovasion yondashuv
- 64 **D.B.Mamadjanova, G.Aripova**  
XX asr mutaffakirlar ijodida tarbiya masallari
- 70 **S.T.Xudoyberdiyeva**  
Oliy ta'lim muassasalarida modul kredit tizimi asosida ta'limni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari
- 75 **V.R.Muxtorova**  
Xalqaro PICA va PIRS baholash dasturlarida ishtiroq etish xususiyatlari
- 80 **G.T.Taganmuratova**  
Matematikava shaxmat tafakkur mezonlari
- 87 **B.Pardayev**  
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiylashuvini ta'minlash pedagogik muammo sifatida
- 91 **G.D.Berdiyorova**  
Korreksion fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash
- 95 **Д.Т.Айтбаев**  
Тил – инсон диадаси муносабати
- 99 **Z.A.Artikbayeva, Y.Q.Abdullayeva**  
Boshlang'ich sinf matematika darslarida iqtisodiy mazmundagi masalalarni yechish – o'qituvchilarida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish vositasi sifatida
- 108 **M.Djumayev, Z.A.Artikbayeva**  
Milliy o'uv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllanadigan kompetensiyalar tizimi
- 110 **Л.Комалходжаева, Н.Артибаева**  
Основные аспекты развития личностных структур сознания в школьном возрасте
- 115 **Ш.О.Болтаева**  
Замонавий ўқитувчи қандай бўлмоғи керак?



## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA IQTISODIY TARBIYA MEZONLARI VA UNING USLUBIY ASOSLARI

**X. T. JUMANOV,**

*Nizomiy nomidagi TDPCU dotsenti*

*Maqolada ijodiy faoliyatning umumiy xarakteristikasining asosiy turlari insonning ijodiy jarayonida shunday sifatlar paydo bo'ladiki, qaysiki u original fikrlash, muammolarni ko'ra bilish, yangi sharoitlarda tezroq mo'ljal olish, topish qobiliyati, intuitsiya va shuningdek, mahsuldorligini ko'rsatadi*

**Tayanch so'zlar:** *iqtisodiy bilimdonlik darajasi, ko'rsatkichlari, mezonlari, uslublari, pedagogik maqsadlar, pedagogik ta'sir vositasi, o'qitish metodi, o'zlashtirilgan bilim, tanlov, didaktika vositalari o'qitish, dasturiy o'qitish, ta'limning modul tamoyili.*

*Основными типами общих характеристик творческой деятельности в статье являются качества, проявляющиеся в творческом процессе человека, проявляющиеся в оригинальном мышлении, способности видеть проблемы, более быстрой ориентации в новых ситуациях, умения находить, а также интуиции. как производительность*

**Ключевые слова:** *уровень экономических знаний, показатели, критерии, методы, педагогические цели, средства педагогического воздействия, методы обучения, приобретенные знания, выбор, дидактические средства обучения, программа обучения, модульные принципы обучения.*

*The main types of general characteristics of creative activity in the article are the qualities manifested in the creative process of a person, manifested in original thinking, the ability to see problems, faster orientation in new situations, the ability to find, as well as intuition. how performance*

**Key words:** *the level of economic knowledge, indicators, criteria, methods, pedagogical goals, means of pedagogical influence, teaching methods, acquired knowledge, choice, didactic teaching aids, training program, modular teaching principles.*

O'quvchining iqtisodiy bilimdonlik darajasi, uning o'rganish muvaffaqiyatiga bog'liq. Ma'lumki, o'rganish muvaffaqiyati o'rganish maqsadining to'g'ri belgilanishi va o'rganish mazmuniga bog'liqligi, shuningdek maqsadlarga erishish metodlariga, ya'ni o'rganish metodlariga ham bog'liqdir. Pedagogik maqsadlarni o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash, o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi o'zaro harakatlarni maqsadga yo'naltirilgan tizimi o'rganish metodini taqozo etadi. Muhim munosabatlar bilan maqsadlarni o'rganish - pedagogik ta'sir vositasi va uning natijalari - pedagogik nazariyasining muhim vazifalaridan biridir.

A. Avloniy buni ta'kidlab, quyidagi umum tan olingan holatlarni ko'rsatgan:  
– konkret sharoitlarga bog'liq bo'lgan holda har bir pedagogik vosita foydali



yoki zararli, sust yoki harakatchan bo‘lishi mumkin;

– pedagogik maqsadlarni amalga oshirishda pedagogik tizim vositalari xizmat qiladi va u bir marta hamda har doim bo‘lmay; u o‘zgaradi va rivojlanadi;

– barcha pedagogik ish qo‘yilgan maqsadga erishish uchun faol, harakatchan va hal etishga intiladi;

– agarda xususiy maqsad bosh masala bilan kelisha olmasa, ikkinchi darajalisidan voz kechib, asosan va hal qiluvchi tomonga intiladi.

Ko‘pgina oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari ta’lim metodlari, ahamiyatiga etarli e’tibor bermaydilar, hozirgi hayot shuni taqozo etadiki, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari hozirgi zamon ta’lim metodlarini yaxshi bilishlari va uning xususiyati hamla shartlarini samarali qo‘llashlari zarur. Qanchalik o‘qituvchi o‘zining ilmiy predmetlarining mohiyatini yaxshi bilsa, talabalar ham yaxshi biladi, o‘qituvchi qanchalik ta’lim va tarbiya jarayonining umumiy qonuniyatlarini chuqur bilsa, shundagina eng zarur bo‘lgan metodlarini tanlab, uning yordamida yuqori samarali pedagogik faoliyat ko‘rsata oladi. O‘qitish metodi muhim pedagogik ahamiyatiga ega: u nafaqat O‘quvchining bilim hajmining kengaytirishga ko‘maklashibgina qolmay, balki, talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi.

O‘qitish metodini tanlashning asosiy mezonlari – bu uning pedagogik samaradorligi, ya’ni o‘zlashtirgan bilim sifati va miqdori, o‘qituvchi talabaga sarflagan mehnati hisobga olgan holda baholash mumkin,

Qoidaga ko‘ra tanlov quyidagicha:

– o‘quv-tarbiya jarayonining maqsadi, o‘rganayotgan u yoki bu predmetning boshqa predmetlar tizimidagi o‘rnini amalga oshiradi;

– o‘qitish metodining qo‘llanishi — o‘quv mashg‘ulotlarining maqsadi bo‘ladi;

– predmetning xarakteriga qarab tayyorlash va ixtisoslashuv yuz beradi;

– predmetlarning ixtisoslashuvi va boshqalar;

– o‘quv materiallarini xarakteriga ham bog‘liq bo‘ladi. (Masalan: ishlab chiqarish, loyihalash, konstruktorlik va boshqalar);

– ishning tashkiliy shakllari (ma’ruza, amaliy mashg‘ulot yoki seminarlar, laboratoriya ishlari va boshqalar);

– o‘rganishda foydalanadigan o‘quv qurollarining va didaktik vositalarning murakkabligi va kompaktligi, xarakteri, ko‘rinishlari;

– o‘rganish jarayonidagi aniq sharoitlar O‘quvchining faqat individual qobiliyatlariga bo‘lib qolmay, balki talabalarning fiziologik va psixologik imkoniyatlari (masalan, mashg‘ulot jadvali, mashg‘ulot o‘tkazishdagi sharoitlar va boshqalar).

O‘rganish metodini tanlash o‘qituvchini o‘zi mutaxassis sifatida, olim va pedagog



sifatidagi qobiliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Shunisi ma'lumki, o'qituvchi uchun universal va har doim, har vaqt foydalanishi mumkin bo'lgan metodning o'zi yo'q.

Shuning uchun ham o'qituvchi o'zi mustaqil o'rgatish metodini tanlaydi va qaysi sohada aniq qo'llashini belgilaydi. O'qituvchi qanchalik o'zining predmetini yaxshi bilsa, o'qitish jarayonining pedagogik-psixologik qonuniyatlarini egallagan bo'lsa, ana shundagina o'qituvchi eng samarali o'rganish metodini tanlaydi va pedagogik mahoratini ko'rsatadi.

Guruh va alohida O'quvchining iqtisodiy bilimdonlik darajasini belgilashning metodik asoslari.

Ko'p yillar davomidagi an'anaviy o'qitishda, o'quvchilarning axborotlar qabul qilishi ikki darajada tuzilgan:

1. Bilish va uni qayta aytish, ya'ni talabalar "nima?" va "qanday?", degan savollarga javob berishga intilganlar, qisman u uchinchi darajali tushuncha bo'ladi.

2. "Nima uchun?" deb qo'yilgan savolni anglash-tushunishga o'tadi. Ammo, xuddi ana shu uchinchi darajada mantiqiy tushuncha asosi yuz beradi, - deb ta'kidlagan V.G.Enshteyn.

Ma'lumki, muhandisga uning faoliyatida birinchi ikki daraja zarur bo'lgan. Lekin, bu faqat o'tgandagi tajribani qaytarishni bilgan xolos, ammo ijodiylik uchun albatta bu etarli emas. Muhandis birinchi ikki darajadan foydalanib, u ijodiy ishlagan. Xuddi ana shu bilan o'qitish yo'nalishi belgilanishi mumkin. Xuddi ana shu sharoitga muammoli o'qitish javob berib, murakkab vazifalarni echishda o'quvchilarning ongi rivojlanadi, o'rganishi faollashadi, mustaqilligi va ijodiy tafakkuri o'sadi.

Ijodiy faoliyatning umumiy xarakteristikasining asosiy turlari insonning ijodiy jarayonida shunday sifatlar paydo bo'ladiki, qaysiki u original fikrlash, muammolarni ko'ra bilish, yangi sharoitlarda tezroq mo'ljal olish, topish qobiliyati, intuitsiya va shuningdek, mahsuldorligini ko'rsatadi. Muammoli o'qitish, muammoli vazifalar, shuningdek o'quvchilarni o'rganishni mashg'ulotdan farqi shundaki, bunda masalani hal etish uchun yangi usul izlash bo'lmay, ma'lum bo'lgan o'rganish metodlarini mustahkamlashdir. Shuning uchun muammoli o'qitishni hal qilish, bu standart bo'lmagan vazifalarga aytilib, bunda talabalar yangi bilim, ko'nikma va bilishni o'zlashtirib oladilar. Bunday holatda o'qituvchi bilimni talabalarga "tayyor holda" bermay, balki talabalar oldida muammoli vazifalarini o'zlarini o'ylab, izlab hal etishini qo'yadi. Bunda talabalar harakati yangi bilimni olish bo'lmay, balki muammoni hal etishdir.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning asosiy tushunchasi - muammoli



vaziyat yaratish va bunda talabalarning etarli bilimlarni egallagan holda muammolarni hal etishdan iboratdir.

Bu o'rinda bilish bilan bilmaslik o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Muammoli vaziyat turli asoslarga bo'linadi: ilmiy bilim sohasi yoki predmetlar (matematika, fizika va boshqalar) sohalar bo'yicha. Bundan maqsad yaxshilik izlash muammosi.

O'quv muammoli vaziyati quyidagicha xarakterlanadi:

- o'qituvchilar bilan birgalikda o'quvchilar aniqlagan ziddiyatlar tipi;
- muammolarni ma'lum bo'lgan usullar orqali hal etish;
- yangi ma'lumotlar taqchilligi yoki nazariy modullar.

Muammoli o'qitishni qo'llayotgan o'qituvchi faqatgina muammoli vaziyatning umumiy tarkibini bilibgina qolmay, balki uning tipologiyasi, o'qitish strategiyasini bilishi va ziddiyatlarni hal etish usullarini ham egallashi kerak.

O'qituvchilardan o'quv materiallarini qo'llashda katta metodik ishlarni talab qiladi. Muammoli o'qitish yangi vazifalarni hal etish metodlari, uning yo'llari, tahlil etishning original usullarini asoslash uchun asos va dalillarning turli vositalaridan foydalanish zarur bo'ladi.

Muammoli o'qitishga o'tish uchun quyidagi amaliy masalalarni hal etish zarur:

1. Tarbiyalanayotgan va rivojlanayotgan maqsadlar predmetlarini aniq belgilash va uning bo'lim va mavzularni asoslash.

2. O'rganilayotgan ilmiy nazariya tarkibini va muammoli mantiqiy tahlil o'tkazish.

3. O'rganalayotgan masalalar va vazifalar majmuasini pedagogik pozitsiya bilan muammolarni aniqlashtirish kerak.

4. To'plangan muammolarni qayta ko'rib chiqib, ularni tizimlash.

Muammoli o'qitishga o'tishning ob'ektiv qiyinchiliklari ham mavjud. Bu muammoli vaziyat "banki"ni tuzish va o'quv materiallarini saralash, mashg'ulotga tayyorlanish uchun ko'proq vaqt sarflanishi zarur. Shu bilan birga har qanday material ham muammoli vaziyat yaratish uchun asos bo'la olmaydi. O'quv materiallarning muammoli bo'lmagan elementiga raqamlar bilan aniq informatsiya va miqdor ma'lumotlari, faktlar, vaqtlar, normalari va boshqaar taalluqli bo'ladi.

**Dasturiy o'qitish.** Dasturiy o'qitish predmeti XX asrning elliginchi yillaridan boshlab, intensiv-jadal psixologik ilmiy-tadqiqot ishiga aylandi. Dasturiy o'qitish uchun o'quv materiallarini uncha katga bo'lmagan qismlarga bo'linishi, ma'lum harakatlarni tartibli bajarilishi, har bir qismni bajarilishi bo'yicha nazorati, talabalarni



javoblarni to'g'rilik darajasi haqida ma'lumot-axborotga ega bo'lishini ifodalaydi.

Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida dasturli o'qitishda "o'qitilayotgan qurilma" joylashtirilgan bo'lib, qaysiki unda bilimni o'zlashtirishning boshqarish funksiyasi beriladi. O'qituvchi shaxsining talaba shaxsini rivojlantirishga ta'siri faqat bevosita bo'ladi. An'anaviy o'qitish bilan dasturiy o'qitish o'rtasidagi asosiy farq, ko'pincha o'xshash bo'lishiga qaramay, dasturiy o'qitish qisqa va lo'nda bo'lishidir. Materiallarni dasturlash uni qat'iy tizimga solishni talab qiladi. Dasturiy o'qitishda tanlov yoki konstruktiv javoblardan foydalaniladi. Har bir dasturiy material o'ziga quyidagilarni qo'shib oladi:

1. O'qitish maqsadini belgilash.
2. Dastur kimlar uchun ishlanishining muhimligi.
3. O'qitish maqsadi bilan o'quv predmeti elementlarini to'la moslashuvi.
4. Omillarni tartibli va tizimli bo'lishi asosida o'rgatish dasturi tuziladi.
5. Dasturning birinchi variantini tajribada sinash va uni tuzatish.

Dasturiy o'qitish - bu universal metod emas.

Ta'limniig modul tamoyillari. Ta'lim metodining rivojida kursning modul tuzilishiga o'tish muhim bosqichdir. Ta'limning barcha shakllari bilan bir qatorda modul metodi ham predmetlarni fundamental tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Odatda semestr ma'ruza kursi 40-50 soatga bo'linsa, kursdagi mavzular 10-12 modulga bo'linib, kollokvium o'tkaziladi. Modul — mustaqil tarkibiy birlik bo'lib, ayrim hollarda talaba barcha kursni tinglamay, faqat qator modullarni eshitadi xolos. Bunda har bir modul didaktik va metodik materiallar bilan ta'minlaydi, ta'lim jarayonidagi asosiy tushunchalar, yangilik va ko'nikmalarni o'zlashtirish zarur bo'ladi. Har bir modul uchun talaba uni o'rganishdan oldin ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlanadi. Modul kerakli adabiyotlar ro'yxati bilan ham ta'minlanadi.

Har bir talaba bir modul materialini o'zlashtirib, boshqa modul bo'yicha o'zlashtirishga o'tadi va joriy nazorat bosqichiga o'tadi. Bilim bahosi uchun yangi, yanada progressiv tizimdan foydalaniladi. Talaba tomonidan har qaysi joriy bosqichda erishgan barcha natijalari, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha ballarda baholanadi. Barcha to'plangan ballar jamlanib, O'quvchining individual indeksi tuziladi. O'quvchining maqsadi maksimal ball to'plashdir. Bahoning umumiy maksimal ballda joriy ball 30-35% beradi, oraliq 20-25%, amaliy mashg'ulot va kurs ishi 25% gacha to'playdi. Imtihonda olgan ballar ulushi O'quvchining o'quv mehnatini umumiy bahosi, odatda 20 % dan oshmaydi.

Bu tizim talabalarni har kuni sistematik ishlashga, o'qish jarayonida



avangardligini oshirishga va imtihon topshirishdagi tasodiflardan xoli bo'ladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, qoidaga binoan talabaga imtihonga tayyorlanish uchun vaqt berilmaydi, imtihon sessiyasining o'tishi tezlashadi.

Ta'limning modul metodi afzalliklari quyidagicha:

- o'quv jarayonining barcha ko'rinishlari ichida har bir modul va ular o'rtasidagi metodik asoslar ta'minoti asosli kelishilganligi;
- kursning modul tuzilishi tarkibining ixchamligi;
- talabalar bilimining o'zlashtirish nazoratining samaradorligi;
- talabalarning tezda tabaqalanishi;
- aspiranturaga nomzodlar tanlovi keskin osonlashadi;
- ma'ruzalar muddati anchagina qisqarib, o'qituvchi talabalarga berayotgan zaruriy bilimlarni o'zlashtirishda yangi shakllarni izlash va o'z sohasi bo'yicha etukli bo'lish va boshqalarga rahbarlik qilishdan iboratdir.

Shunisi ma'lumki, o'qitishning modul tamoyili birinchi bosqichda jiddiy yondashishni talab qiladi. Modulni tuzish uchun o'qituvchi predmet hajmini kengaytirmasdan, balki uni qisqartirib, talabalarga beriladigan zaruriy bilimni to'la ta'min etishi, fikrlash metodini shakllantirishni ham ta'minlab, mustaqil ravishda yangiliklarni olishdan iborat.

Ta'limning modul metodi kursning asosiy masalalari bo'yicha umumlashgai axborotlar olish va buning uchun muammoli ma'ruzalarni o'qishga undaydi. O'qilgan ma'ruzalar talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlangirishga yo'naltirilishi kerak.

Modul tamoyilini tadbiiq etish o'quv jarayonini tashkiliy qayta qurishni talab qiladi: o'qituvchi ishlarining rejalashtirishni o'zgartirish, uni tayyorlash uchun laboratoriya bazalarini hozirlash va shunga mos metodlarni ishlab chiqish, bilimlarni tekshirish nazoratlarini uyushtirish va boshqalar.

Umumta'lim maktablarida iqtisodiy tarbiya mezonlari va uning uslubiy asoslari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelamiz:

1-xulosa. Iqtisodiy bilimdonlik darajasi va uning ko'rsatkichlari. O'quvchning iqtisodiy bilimdonlik darajasi o'rganish muvaffaqiyatiga bog'liq. Pedagogik maqsadlarni o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash, o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi o'zaro harakatlarni maqsadga yo'naltirilgan tizimi o'rganish metodini ifodalaydi.

O'qitish metodini tanlashning asosiy mezonlari – bu uning pedagogik samaradorligi, ya'ni o'zlashtirgan bilim sifati va miqdori, o'qituvchi talabaga



sarflagan mehnati hisobga olgan holda baholash.

O'qituvchi uchun universal va har doim, har vaqg foydalanishi mumkin bo'lgan metodning o'zi yo'q. Shuning uchun ham o'qituvchi o'zi mustaqil o'rgatish metodini tanlaydi va qaysi sohada aniq qo'llashini belgilaydi.

2-xulosa. Guruh va alohida O'quvchning iqtisodiy bilimdonlik darajasini belgilashning metodik asoslari. Ko'p yillar davomida an'anaviy o'qitish o'quvchilarni axborotlar qabul qilishi ikki darajada tuzilgan: 1. Bilish va uni qayta aytish ya'ni talabalar "nima?" va "qanday?", degan savollarga javob berishga intilish. 2. "Nima uchun?" deb qo'yilgan savolni anglash-tushunish. Guruh va alohida O'quvchning iqtisodiy bilimdonlik darajasini belgilashning metodik asoslarida avvalo O'quvchning alohida, ya'ni individual qobiliyatiga e'tibor qaratib, barcha guruh talabalarini o'rganib, so'nga ularning bilimdonligini aniqlash mumkin. Buning uchun ularga kompleks usullardan foydalanish zarur.

3-xulosa. Oliygo'hlardagi talabalarning bilimdonlik darajasini belgilash jarayoniga rahbarlik qilish. Dasturiy o'qitish uchun o'quv materiallarini uncha katta bo'lmagan qismlarga bo'linishi, ma'lum harakatlarni tartibli bajarilishi, har bir qismni bajarilishi bo'yicha nazorati, talabalarni javoblarni to'g'ri darajasi haqida ma'lumot-axborotga ega bo'lishini ifodalaydi. Materiallarni dasturlash uni qat'iy tizimga solishni talab qiladi. Dasturiy o'qitishda tanlov yoki konstruktiv javoblardan foydalaniladi. Dasturiy materialda: o'qitish maqsadini, dastur kimlar uchun ishlanishining muhimligi, o'qitish maqsadi bilan o'quv predmeti elementlarini to'la moslashuvi, omillarni tartibli va tizimli bo'lishi asosida o'rgatish dasturi tuziladi.

Ta'lim metodining rivojida kursning modul tuzilishiga o'tish muhim bosqichdir. Odatda semestr ma'ruza kursi 40-50 soatga bo'linsa, kursdagi mavzular 10-12 modulga bo'linib, kollokvium o'tkaziladi. Modul - mustaqil tarkibiy birlik bo'lib, ayrim hollarda talaba barcha kursni tinglamay, faqat qator modullarni eshitadi. Bu tizim talabalarni har kuni sistematik ishlashga, o'qish jarayonida avangardligini oshirishga va imtihon topshirishdagi tasodiflardan holi bo'ladi. Ta'limning modul metodi afzalliklari: 1) o'quv jarayonining barcha ko'rinishlari ichida har bir modul asosli; 2.) tuzilgan modulning ixchamligi; 3) o'zlashtirish nazoratining samaradoriligi; 4) talabalarning tabaqalanishi; 5) aspiranturaga nomzodlar tanlovi osonlashadi; 6) ma'ruzalar muddati anchagina qisqarib, o'qituvchi talabalarga berayotgan zaruriy bilimlarni o'zlashtirishda yangi shakllarni izlash va o'z sohasi bo'yicha etukli bo'lish va boshqalarga rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.



### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Musurmonova O. Ma’naviyat qadriyatları va yoshlar tarbiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1995.
4. O‘zbekiston pedagogikasi antologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1995.
5. Podgotovka ekonomistov v vuze: problem! i opit / Sbornik nauchn. trudov. - Voronej: 1991.
6. Psixologiya i pedagogika: Ucheb. posob. / Sostavitel i otv. redaktor A.A.Radugin. - M.: Sentr, 2003.
7. Slastenin V.A. i dr. Pedagogika: Ucheb. posob. dlya stud. ped. ucheb. zaved. / V.A.Slastenin, I.F. Isaev, A.I.Mishenko, Ye.I.Shionov. - M.: Shkolnaya Pressa, 2004.
8. Toxtaxunova D. Основы народной педагогики в экономическом воспитании. - T.: 2001.
9. Traynev V.A. i dr. Методы игрового обучения и интенсивные учебные процессы: теория, методология, практика / Traynev V.A., Matrosov L.N., Buzikina A.B. - M.: Prometey, 2003.
10. Xo‘jaev N., Hasanboev J. Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2002.
11. Xoshimov K., Nishonova S., Inamova S., Hasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: O‘qituvchi, 1996.